

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA ERKALOVCHI BIRLIKLARNING GENDER OMILI: LEKSIK-USLUBIY VA MADANIY-KOGNITIV TAHLIL

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.026>

Tadjiboyeva Shoxsanam Rasulbekovna
GulDU

Annotatsiya: Maqolada nemis va o‘zbek tillarida mehr-muhabbat, yaqinlik va ijtimoiy rolni bildiruvchi erkalovchi birliklar (nemis tilida - Kosenamen)ning gender nuqtai nazaridan leksik, morfologik, uslubiy va madaniy-kognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot *Duden* nashriyoti lug‘atlaridagi pometa-indikatorlar[1], *DWDS* onlayn korpusi[2], badiiy matnlardagi misollar (J. W. Goethe *Die Leiden des jungen Werthe*[3], Th. Fontane *Effi Briest* [4]), shuningdek gender lingvistikasidagi ishlanmalar (E. L. Wyss va hammualliflar [5]; D. Tannen [6]) asosida olib borildi. Natijalarga ko‘ra, nemis tilida gender-neytral Kosenamenlar (*Schatz, Liebling, Herzchen*) ko‘p qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa gender-spetsifik birliklar (*gulchira, oppoq qizim, botir*) ijtimoiy rol va qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Ayol nutqida *diminutiv va estetik baholovchi* birliklar ustun; erkak nutqida esa *kuch, himoya va maqom* semantikasi yetakchi.

Kalit so‘zlar: Kosenamen, erkalash, gender, diminutiv, vokativ, *Duden*, *DWDS*, Tannen, Wyss, Werther, *Effi Briest*

GENDER FACTOR OF TERMINAL UNITS IN GERMAN AND UZBEKISTAN: LEXICAL-STYLISTIC AND CULTURAL-COGNITIVE ANALYSIS

Tadjiboyeva Shokhsanam Rasulbekovna
GulDU

Abstract: The article provides a comparative analysis of the lexical, morphological, stylistic, and cultural-cognitive features of endearing expressions (Kosenamen) in German and Uzbek languages from a gender perspective. The study relies on the indicator labels in *Duden* dictionaries and the *DWDS* online corpus, examples from literary works (J. W. Goethe’s *Die Leiden des jungen Werther* and Th. Fontane’s *Effi Briest*), as well as research in gender linguistics (E. L. Wyss et al.; D. Tannen). The findings show that in German, the proportion of gender-neutral Kosenamen is high (*Schatz, Liebling, Herzchen*), while in Uzbek, gender-specific forms are strongly linked to social roles and cultural values. In most cases, women’s

speech is characterized by diminutives and aesthetic-evaluative forms, whereas men's speech more frequently reflects meanings of strength, protection, and social status.

Keywords: Kosename, endearment, gender, diminutive, Duden, DWDS, Tannen, Wyss, Werther, Effi Briest

Kirish Erkalovchi birliklar shaxslararo yaqinlik va ijtimoiy roldan xabardorlikni til tizimida yumshoq indeksik belgilar orqali kodlaydi. Ular faol va passiv qatlamlarda yashaydi hamda zamonga ko'ra pometalari bilan belgilab boriladi (*veraltet, poetisch, scherzhaft*). Nemis tilidagi keng tarqalgan Kosename'lar: *Schatz, Liebling, Herzchen*; o'zbek tilida esa: *jonim, ko'zim, gulim* va b. Bu birliklarning uslubiy maqomi lug'at va korpus manbalarida qayd etilgan[12].

Nazariy asos Tadqiqot genderni til orqali bajarish (doing gender) va gender stereotiplarini neytrallash (undoing gender) yondashuvlariga asoslanadi. West va Zimmerman nazariyasiga ko'ra, gender biologik emas, balki ijtimoiy amaliyot jarayonida "bajarilib turadigan" roldir. Shu bois til vositalari orqali jinsiy rollar mustahkamlanadi (doing gender). Masalan, nemis tilidagi *Mäuschen, Püppchen* kabi Kosename ayol obrazini "nozik, yumshoq, infantil" sifatida kodlaydi.

Shu bilan birga, ayrim birliklarning neytrallashuvi yoki eskirishi *undoing gender* jarayonini bildiradi. Masalan, *Fräulein* hozirda "veraltet" sifatida belgilangan[8], *Schatz* va *Liebling* esa gender-neytral murojaatlarga aylangan.

Shuningdek, D. Tannenning "rapport-talk/report-talk" modeli erkak va ayol nutqi o'rtasidagi kommunikativ tafovutlarni tushuntiradi[6]. Wyss va hammualliflar esa Kosename orqali gender konstruksiyalarini ochib, ayollar uchun infantilizatsiya metaforalari, erkaklar uchun esa kuch va maqom ramzlarning ustunligini ko'rsatadi[5].

Maqsad va metod Maqsad - nemis va o'zbek tillarida erkalovchi birliklarning genderga xos leksik-morfologik ko'rsatkichlari, uslubiy pometa va madaniy konnotatsiyalarini qiyosiy o'rganish.

Metodlar:

1. Onlayn lug'atlar asosida komponent-pometa tahlil [12].
2. Badiiy matnlardan kontekstual iqtiboslar[3].[4].
3. Gender kommunikatsiyasi nazariyalari [5].[6].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Lug'aviy va uslubiy indikatorlarga quyidagi manbaga asosan, *Duden* nashriyotidagi lug'atlarda *Schatz* "(ko'pincha murojaatda) [*mein*] *Schatz*" sifatida, umumso'zlashuv pometa bilan; ayrim hollarda esa *veraltet* va *scherzhaft* belgisi bilan beriladi[1]. *Liebling* esa neytral murojaat vositasi sifatida qayd etilgan[2].

O'zbek tilida esa genderga xos birliklar ko'proq an'anaviy rollarga bog'liq: erkaklarga - *aka, botir, polvon, toy, qo'zim og'a*; ayollarga - *gulim, oyim, ma'shuqa, sevgilim*.

Bundan tashqari yan Gender bo'yicha guruhlash (nemis)da quyidagi natijalarga keldik.

- Universallar: *Schatz, Liebling, Herzchen*.

- Erkaklarga xos: *Bursche, Kerl, Hänsel, Heldchen* - *Mann, Junge, männlich* markerlari bilan izohlangan.

- Ayollarga xos: *Mädel, Fräulein, Schätzchen* - *Fräulein* bugungi kunda "veraltet"[8].

Badiiy misollardagi ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, erkalovchi birliklar Goethe *Werther*da "*mein Schatz*" murojaati hamda *so gut, sehr* kabi kuchaytirgichlar romantik yaqinlikni oshiradi[3]. Fontane *Effi Briest*da esa erkalovchi birliklarni ijtimoiy maqom va hissiy rollarning belgisi sifatida namoyon bo'lishini takidlad[4].

Muloqot uslubida ham farqlar mavjudligi kuzatildi. Tannen modeliga ko'ra, erkaklar report-talk (axborot/strategik), ayollar rapport-talk (*munosabat/emotsional yaqinlik*) uslubiga moyil[6].

O'zbek ayol nutqida bu diminutiv affikslar (-jon, -cha, -gina) va modal yuklamalari (*a, shundaymi?, yo'g'e?*) orqali, nemis ayol nutqida esa intonatsiya va modal partikllar (*doch, mal, ja*) orqali ifodalanadi.

Muhokama Wyss E.L va Dammel A. Niekrenz, Y, Rapp A *Muckelchen oder Süßer* kabi erkalash birliklari orqali gender konstruksiyasini izohlab, ayollar uchun infantilizatsiya metaforalari, erkaklar uchun esa kuch/maqom ramzlari ustunligini ko'rsatadi[5]. Bu holat o'zbek tilidagi kuzatishlar bilan hamohang: ayolga nisbatan estetik-iltifot, erkakka nisbatan jasorat/himoya semantikasi ustun.

Nemis tilida *Fräulein*ning "veraltet" bo'lishi jamiyatda gender tenglik normalashuvini ko'rsatadi[8]. Badiiy matnlarda esa Kosenam ko'pincha superlativ va gradatsiya vositalari bilan kuchayadi (*mein allerliebster Schatz*)[34].

Xulosa Tadqiqotimiz natijasida quyidagi hulosaga keldik.

1. Nemis tilida erkalovchi birliklar'larning *gender-neytral yadrosi* keng tarqalgan, o'zbek tilida esa gender-spetsifik qatlam ustun.

2. Ayol nutqida *diminutiv-estetik birliklar*, erkak nutqida esa *kuch va maqom semantikasi* ko'proq kuzatiladi.

3. *Fräulein* kabi tarixiy birliklarning pometa almashinuvi (veraltet) til-jamiyatdagi gender normalarining o'zgarishini ko'rsatadi.

4. Badiiy matnlarda erkalovchi birliklar intensivatorlar bilan birga kelib, emotsional yaqinlikni semantik va stilistik jihatdan kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Duden Online. "Schatz - Rechtschreibung, Bedeutung, Definition." URL: www.duden.de/rechtschreibung/Schatz. (Murojaat sanasi: 10.09.2025).
2. Duden Online. "Liebling - Rechtschreibung, Bedeutung, Definition." URL: www.duden.de/rechtschreibung/Liebling. (Murojaat sanasi: 10.09.2025).
3. Goethe J. W. Die Leiden des jungen Werther. Stuttgart: Reclam, 1774.
4. Fontane Th. Effi Briest. Berlin: 1895.
5. Dammel A.; Niekrenz, Y.; Rapp, A.; Wyss, E. L. Muckelchen oder Süßer? Onymische Gender-Konstruktionen bei Kosenamen im Liebesbrief. In: Nübling D.; Hirschauer, S. (Hg.). Namen und Geschlechter. Berlin-Boston: De Gruyter, 2018. - S. 157-190.
6. Tannen D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. New York: William Morrow, 1990.
7. Duden Online. "scherzhaft - Bedeutung." URL: www.duden.de/rechtschreibung/scherzhaft. (Murojaat: 10.09.2025).
8. Duden Online. "Fräulein - Rechtschreibung, Bedeutung, Definition." URL: www.duden.de/rechtschreibung/Fraeulein. (Murojaat: 10.09.2025).